

Rafiqjon Zaripov



Rafiqjon Zaripov Ergashboy o'g'li 1992-yil 13-aprelda Namangan viloyati Chust shahrida tug'ilgan. Millati - o'zbek.

1999-2011-yillarda Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 45-maxsus maktab internatida o'qigan.

2011-2015-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti bakalavriatura bosqichida, 2015-2017-yillarda Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistraturasida tahsil olgan.

2021-yilda "Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm" mavzusida 10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligida dissertatsiya himoya qilgan va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olgan.

2024-yilda "O'zbekistonda davlat tili menejmenti: sotsiolingvistik aspekti va huquqiy-me'yoriy asoslar" mavzusida 10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va filologiya fanlari doktori (DSc) darajasini olgan.

Dunyoning qator davlatlari: Polsha, Ispaniya, Turkiya, AQSh, Indoneziya, Qozog'iston, Tojikiston hamda respublika ilmiy jurnallarida, qator anjumanlarda 50 dan ortiq ilmiy maqolalari nashr etilgan.



O'ZBEKISTONDA DAVLAT TILI MENEJMENTI: SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTI VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLAR



O'ZBEKISTONDA DAVLAT TILI MENEJMENTI: SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTI VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLAR

Monografiya

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

RENESSANS TA’LIM UNIVERSITETI

Zaripov Rafiqjon Ergashboy o‘g‘li

**O‘ZBEKISTONDA DAVLAT TILI
MENEJMENTI: SOTSIOLINGVISTIK
ASPEKTI VA HUQUQIY-ME’YORIY
ASOSLAR**

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 330(575.1)

KBK: 65.5(5O‘z)

Z 32

Zaripov Rafiqjon Ergashboy o‘g‘li.

O‘zbekistonda davlat tili menejmenti: sotsiolingvistik aspekti va huquqiy-me‘yoriy asoslar [Matn]: monografiya / R.E.Zaripov. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 228 b.

Ushbu monografiyada O‘zbekistondagi davlat tili menejmenti va til siyosatini til va jamiyat mushtarakligi tamoyillari asosida tavsiflash, ularning huquqiy-me‘yoriy asoslarini dalillash va davlat tili menejmentini samarali yo‘lga qo‘yishda e‘tibor qaratilishi zarur bo‘lgan sotsiolingvistik omillar, normativ asoslarni jahon tajribasi asosida belgilash masalalari yoritilgan.

Monografiya fundamental va amaliy filologiya masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

B.R.Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

L.Raupova – filologiya fanlari doktori, professor

I.Azimov – filologiya fanlari doktori, dotsent

Monografiya Renessans ta’lim universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2024-yil 26-oktabrdagi 3-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-359-6

© Zaripov R.E., 2025.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

KIRISH

Jahon tilshunosligida 1950–1960-yillarga kelib sotsiolingvistika sohasi yuzaga keldi. Til boshqaruvi va til siyosati muammolari sotsiolingvistikaning tadqiq birliklariga aloqador tarzda XX asrning 70–80-yillaridan sotsiolingvistika tarkibida tadqiq qilingan. Asosiy e'tibori til o'rganish nazariyasi va tilni boshqarish yondashuvlariga qaratilgan tilni boshqarish nazariyasi (LMT) asoslari ham jahonning qator mamlakatlarida bir vaqtda ayni davrda shakllangan bo'lsa-da, ushbu soha yondashuv va tadqiq usullari turli mintaqalarda ma'lum darajada farqlilik kasb etdi. Xususan, AQShda til siyosati, tilni rejalashtirishga oid tadqiqotlar mamlakatdagi til holati, vaziyati, maqomi kabi masalalarni o'rganishga qaratilgan edi. Mazkur masalalar Yevropa mamlakatlarida ham ushbu davrlardan boshlab tadqiq qilindi. Til faktlari asosan XIX asrda alohida fan sifatida ajralib chiqqan sotsiologiya doirasida tadqiq qilingan. Qayd etish joizki, ushbu davrlarda til muammolari ko'plab mamlakatlar til menejmentida katta ahamiyat kasb etgan va ularni bartaraf etish uchun nazariy va amaliy tadqiqotlar zarurati mavjud edi. Shu sabab til muammolari til vaziyatiga aloqador tarzda amaliy tadqiq etilgan.

Dunyo tilshunosligida XX asrning 70–80-yillarida shakllangan Tilni boshqarish nazariyasi (LMT) tadqiqotlari asosan nutq menejmenti, millat miqyosidagi til menejmenti masalalariga qaratilgan. Ayni davrga kelib inson nutqi, shaxslar kommunikatsiyasida yuzaga keladigan buzilishlarni tuzatishga qaratilgan yangi yo'nalishga ehtiyoj natijasida nutq menejmenti sohasi yuzaga keldi. Nutq menejmenti doirasidagi tadqiqotlarda nutqning barcha darajadagi buzilishlarini qamrab olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan usullarni taklif etish dolzarblik sifatida belgilandi. Shuningdek, til siyosati, tilni rejalashtirish nazariyalari ham shakllanib, til siyosatining qator modellari, tilni rejalashtirish mexanizmlari yuzaga keldi, uyushgan til boshqaruvi, til menejmentining mikro va makro darajalari ajratilib, kichik doiradagi til menejerizatsiyasi muammolari mikro menejment tomonidan, milliy va undan kengroq jamoalardagi til menejmenti masalalari esa makro darajadagi til boshqaruvi tomonidan tartibga solindi. Mustaqil davlatlar soni ortgani sari til menejmenti tadqiqotlari qamrovi kengayib bordi, uning davlat yoki

millat darajasidagi ko‘rinishlari yuzaga keldi. Yangi mustaqil davlatlar uchun til boshqaruvi mexanizmlari zarurati til menejmenti sohasi tomonidan amalga oshiriladigan tadqiqotlarning dolzarbligini taqozo qildi.

O‘zbek tilshunosligida sotsiolingvistika va til menejmenti masalalari tadqiqi yetarlicha darajada amalga oshirilmagan, ayrim manbalardagina o‘zbek sotsiumi, mamlakatdagi lisoniy vaziyatga aloqador masalalar qayd etib o‘tiladi. Sotsiolingvistikaga oid o‘quv qo‘llanma va darsliklarda asosan jahon tilshunosligidagi tadqiqotlarga e‘tibor qaratiladi, ammo O‘zbekiston sotsiolingvistikasi deyarli yoritilmaydi, faqat mavjud statistik materiallar bilan cheklaniladi, tahliliy tafsilotlar keltirilmaydi. Bugungi kunda O‘zbekistondagi lisoniy vaziyatni ilmiy jihatdan tahlil va tadqiq qilish sohaning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Chunki mamlakatdagi lisoniy vaziyat, lisoniy jamiyat va shaxs munosabati, tilning amaliy faoliyatini tadqiq qilish respublikadagi tillarning ijtimoiy-lisoniy holati, o‘lkada istiqomat qiluvchi millatlar tili, ularning necha foizi jonli tillar qatorida yashab kelayotganligi, qo‘llanilish doirasi, tarqalish hududi, madaniyatlar integratsiyasida tutgan o‘rni, rivojlanish tendensiyasi, hozirgacha iste‘molda bo‘lish sabab va omillari, taraqqiyoti kabi masalalarni xolis baholash imkoniyatini ta‘minlaydi. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarning vujudga kelishi mamlakatda mavjud millatlar tilining tarixiy taraqqiyotini davrlararo turli omillar bilan bog‘liq holda o‘rganish, avval mavjud bo‘lgan, ammo hozirgi kunda umuman qo‘llanmaydigan millatlar tilini o‘rganish yoki ularning o‘lik tilga aylanish omillari kabi masalalarga oydinlik kiritishga yordam beradi. O‘zbek tilshunosligida asosan til siyosati masalasi tadqiq qilingan, mazkur tadqiqotlarda til menejmentiga aloqador ayrim masalalargagina e‘tibor qaratilgan, biroq til boshqaruvi mexanizmlari yuzasidan maxsus monografik tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Jahon tilshunosligida til menejmenti va til siyosati masalalari XX asr o‘rtalaridan sotsiolingvistika tarkibida tadqiq etilgan. Til menejmenti va til siyosati masalalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar Harvard University, New York University, Chicago University, Amerikan Academy of Art and Sciences (AQSh), Toronto University (Kanada), Cambridge University, University of Oxford, Edinburgh University, London Metropolitan University

(Angliya), The French National Research Agency (Fransiya), University of Humboldt (Germaniya), Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg universiteti, Tatarstan Kazan federal universiteti (Rossiya), Maribor Universiteti (Sloveniya), Hankuk University of Foreign Studies (Koreya), Bar-Ilan universiteti (Isroil), Qozoq milliy universiteti (Qozog'iston), O'zR FA til, adabiyot va folklor ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti (O'zbekiston) kabilar tomonidan tadqiq qilinib kelinmoqda.

Jahon tilshunosligida til menejmentiga oid izlanishlar natijasida shaxslar nutqidagi buzilishlarni tuzatishda oddiy boshqaruv usullari, boshqaruvchi va boshqariluvchi tamoyiliga asoslangan uyushgan boshqaruv strategiyalari, makro darajadagi til boshqaruvi usullari, mikro darajadagi til boshqaruvi yo'nalishlari, til menejmentining davlat miqyosidagi imkoniyatlari, millat darajasidagi xususiyatlari, hukumat tashkilotlariga bog'liq yo'nalishlari, til jamoalariga aloqador ustuvor masalalari ochib berilgan. Shuningdek, AQShda polietnik davlatlarda minoritar tillarning sotsiumda qo'llanilishining nazariy jihatlarini, lisoniy vaziyatlarni o'rganish ilmiy natijalari, Kanadada bir tillilik, ko'ptillilikning lisoniy vaziyatlarda voqelanishi, Angliyada jamiyatdagi me'yor va nutq muammosi yechimlari, Sloveniyada lisoniy vaziyatlarning tipologiyasi, Rossiyada ko'pmillatli davlatlarda etnoslararo, madaniyatlararo muloqot va milliy mentalitet muammolari, O'zbekistonda til va sotsium, lisoniy birliklarning sotsiolingvistik xususiyatlari, til siyosati modellari masalalari jahon sotsiolingvistikasi tajribalari asosida tadqiq etib kelinmoqda.

Dunyo tilshunosligida til menejmenti doirasida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: shaxslar nutqidagi buzilishlarni aniqlash, oddiy boshqaruv usullarini takomillashtirish, shaxslar nutqidagi buzilishlarni tuzatishda oddiy boshqaruv usullaridan foydalanish strategiyalarini belgilash, uyushgan boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish, makro darajadagi til boshqaruvi usullarini til menejmentiga tatbiq qilish, mikro darajadagi til boshqaruvi yo'nalishlari va chegaralarini, davlat miqyosidagi til menejmenti imkoniyatlarini belgilash, millat miqyosidagi til menejmenti xususiyatlarini asoslash, hukumat tashkilotlariga bog'liq til menejmenti yo'nalishlarini tavsiflash, til jamoalariga aloqador til menejmentining ustuvor jihatlarini dalillash.

Jahon mamlakatlaridagi davlat tili menejmenti, til siyosatiga doir masalalar Das Gupta, Charlz A.Fergyuson, Joshua A.Fishman, Einar Haugen, Bjiirn Jernudd, Xaynts Floss, Robert L.Kuper, Bernard Spolskiy, Joan Rubin, Gorman Tomas P., Gumperz Jon J., Xoll Robert A., Xoskett Charlz F., Jernudd Byorn H., Kachru Braj B., Karam Frensis X., Labov Uilyam, Nekvapil Jiri, Neustupny Jiff V., Noss Richard, Vaynshteyn Brayan kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ularning ayrimlari mavzuga doir ko‘plab maqolalar nashr etgan bo‘lsa, ba’zilari til menejmenti, til siyosati yuzasidan o‘quv qo‘llanma va monografiyalar chop ettirganlar. Shuningdek, jahon tilshunosligida mavzuga aloqador masalalar tadqiqini Yan Boduen de Kurtene, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, V.M.Alpatov, Y.D.Desheriyev¹, U.Ammon, A.I.Baskakov, E.D.Polivanov, N.F.Yakovlev, A.M.Selishev, V.M.Peshkov, J.P.Yakubinskiy, L.I.Jirkov, D.V.Bubrix, N.N.Poppe, N.K.Dmitriyev, A.M.Suxotin, K.K.Yudaxin, L.B.Nikolskiy², V.D.Bondaletov³, L.P.Krisin⁴, R.T.Bell⁵, Y.B.Koryakov⁶, A.R.Jikeeva⁷, Dj.N.Tuxvatulina⁸ ilmiy izlanishlarida kuzatishimiz mumkin.

Ko‘plab mamlakatlarda sotsiolingvistika XX asr o‘rtalaridan shakllanib, taraqqiy eta boshlagan bo‘lsa ham, til va jamiyat muammolari avvalgi davrlarda ham olimlar diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, til siyosati muammolari AQShda davlat mustaqilligi e‘lon qilingan davrlardan boshlab shakllangan. Til siyosati, tilni rejalashtirishga oid tadqiqotlar mamlakatdagi til holati, vaziyati, maqomi kabi jihatlarni yoritishga qaratilgan edi. Til va jamiyat munosabatini asoslash, ular o‘rtasidagi yuzaga keladigan muammolarni hal etish yangi sohaning shakllanishiga turtki berdi

¹ Дешериев Ю.Д. Социальная лингвистика. – М.: Наука, 1977. – 382 с.

² Никольский Л.Б. Синхронная социолингвистика. – М.: Наука, 1976. – 168 с.

³ Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. – М.: Просвещение, 1987. – 160 с.

⁴ Крысин Л.П. Социолингвистические аспекты изучения современного русского языка. – М.: Наука, 1989. – 192 с.

⁵ Белл Р.Т. Социолингвистика. Цели, методы и проблемы. – М.: Международные отношения, 1980. – 317 с.

⁶ Коряков Ю.Б. Языковая ситуация в Белоруссии и типология языковых ситуаций: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2002. – 128 с.

⁷ Жикеева А.Р. Языковая ситуация Костанайской области (билингвистический аспект): Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2011. – 181 с.

⁸ Тухватулина Дж.Н. Языковая ситуация в республике Татарстан в контексте европейской языковой политики: Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2007. – 190 с.

hamda birinchi bo'lib AQShda til va jamiyat kesishuvida sotsiolingvistika yo'nalishi shakllandi. Umumman, Amerika sotsiolingvistikasi vakillari til hodisalarini ichki va tashqi ta'sirlar hamkorligi asosida atroflicha tadqiq qildilar. Amerika sotsiolingvistikasi vakillari sifatida: X.P.Rona, U.Labov⁹, A.D.Grimsho, J.O.Gersle, A.Fishman, A.Keypel, S.M.Ervin-Tripp¹⁰, U.Brayt¹¹, P.H.Furfey¹², S.Martin¹³, M.E.Opler¹⁴, Ch.A.Ferguson¹⁵, E.Sapir¹⁶, J.Gampers¹⁷, A.Ramanujan¹⁸, X.Xoenigswald¹⁹, J.L.Fisher²⁰ lar qaraladi. Ispan tilshunosi Gonsalo de Korreas XVII asrda tilning ijtimoiy farqliliklarini ko'rsatib bergan edi²¹. Shuningdek, tilning ijtimoiy variantlari M.Alvar, G.Salvador²² va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o'rganildi. E.Dyurkgeym, J.I.Levi-Bryul va G.Tardning tadqiqotlari Fransiyada tilning ijtimoiy hodisa sifatida belgilanishiga asos bo'lgan. Fransiyada tilning ijtimoiy tabiati M.Fege²³, N.Boze,

⁹ Labov W. The social motivation of a sound change // Word. – Vol. 19, 1963. – P. 273–309; Labov W. Phonological correlates of social stratification. In Gumperz and Hymes, 1964. – 164–176 pp.

¹⁰ Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социоллингвистика. – М., 1975. – 336 с.

¹¹ Брайт У. Введение: параметры социоллингвистики // Новое в лингвистике. Вып. VII. – М., 1975. – 34–41 сс.

¹² Furfey P.H. Men's and women's language. "American Catholic Sociological Review". – Vol. 5, 1944. – 218–223 pp.

¹³ Martin S. Speech levels in Japan and Corea. "Language in Culture and Society". Eds. by Dell Hymes. – New York, 1964. – 407–412 pp.

¹⁴ Opler M.E., Hoijer H. The raid and war-patch language of the Chiricahua Apache // American Anthropologist. – Vol. 42, 1940. – 617–634 pp.

¹⁵ Ferguson Ch. A. Baby talk in six languages. in Gumperz and Hymes, 1964. – 103–114 pp.

¹⁶ Sapir E. Male and female forms of speech in Jana, 1929. Reprinted in "Selected Writings of Edward Sapir", ed. by David G. Mandelbaum. – Berkeley, 1949. – 206–212 pp.

¹⁷ Gumperz J.J. Dialect differences and social stratification in a North Indian village // American Anthropologist. – Vol. 60, 1958. – 668–682 pp.

¹⁸ Bright W. and Ramanujan A.K. Sociolinguistic variation and language change // Proceedings of the 9th International Congress of Linguistics. – The Hague, 1964. – 1107–1113 pp.

¹⁹ Hoenigswald H.M. A proposal for the study of the folk-linguistics // Sociolinguistics. – The Hague; Paris, 1966. – 16–20 pp.

²⁰ Fisher J.L. Syntax and Social Structure: Truk and Ponape // Sociolinguistics. – The Hague; Paris, 1966. – 168–183 pp.

²¹ Степанов Г.В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи. – М., 1976. – 22 с.

²² Alvar M. Niveles socio-culturales en el habla de las Palmas de Gran Canaria. – Las Palmas de Gran Canaria, 1972; Estructuralismo, geografía lingüística y dialectología actual. – Madrid, 1973; Lengua y sociedad. – Barcelona, 1976.

²³ Encyclopedie of Diderot and d'Alembert in an article by M. Faiguet. – Paris, 1765. – 249 p.

P.Lafarg²⁴, Moris Grammont, Ferdinand Bruno, Alber Dauzat, Jozef Vandries, J.Sumf, V.G.Gak, M.Koen²⁵, Andre Martine²⁶ kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Nemis tilshunoslari asosiy diqqat-e'tiborni dialektlar, me'yor muammosi, adabiy til, so'zlashuv tili va dialektlarning o'zaro munosabatini o'rganishga qaratdi²⁷. Y.Grimm, I.A.Shmeller, G.Venker, F.Vredlar izlanishlari fikrimizning dalili. V.Gumboldt, B.Bernstayn, X.Gipper kabi olimlar o'z tadqiq yo'nalishlariga asos soldilar. Til va siyosat muammolari GFRda XX asr 50-yillarining oxirida X.Moser, L.Makensen va V.Betslarning tadqiqotlarida²⁸ vujudga keldi. Ta'kidlash joizki, Germaniyada ilk bor sotsialingvistika bilan sotsiolingvistika farqlangan: sotsialingvistika – til va jamiyat munosabati; sotsiolingvistika esa lisonning sotsiumga xoslanishi masalalariga e'tibor qaratishi nuqtayi nazaridan o'zaro ajratilgan. Rossiyada til va til siyosati masalalari tadqiqi sotsiolingvistik yo'nalish tarkibida XX asrning 20–30-yillaridan boshlangan. Bu boradagi dastlabki empirik izlanishlar R.O.Shor, A.M.Selishev, L.P.Yakubinskiy, L.I.Barannikova, U.Uspenskiy, V.M.Jirmunskiy, Y.D.Polivanov, V.V.Vinogradov, B.A.Larin, K.N.Derjavin va G.O.Vinokurlar tomonidan olib borilgan. Keyingi davrlarda Y.D.Desheriev, A.D.Shveytser²⁹, V.A.Avrarin, A.A.Leontev, L.B.Nikolskiy, T.B.Kryuchkova, L.P.Krisin, V.M.Alpatov, N.B.Mechkovskaya va V.I.Belikov kabilar sotsiolingvistika fani rivojiga katta hissa qo'shdilar.

²⁴ Лафарг П. Язык и революция: Французский язык до и после революции (La langue française avant et après la révolution 1894). / Перевод с французского Т.Фалькович и Е.Шишмаревой под редакцией и со вступительной статьей В.Гоффеншефера: “Лафарг и проблемы языка”. – М., – Л.: Academia, 1930. – 22 с.

²⁵ Cohen M. Pour une sociologie du langage. – Paris, 1956 & 2008. – 30 p. <https://www.cairn.info/revue-langage-et-societe-2009-2-page-55.htm>

²⁶ Мартин А. Основы общей лингвистики (Éléments de linguistique générale). – В кн.: Новое в лингвистике. Вып. 3. – М., 1963. – 12 с.

²⁷ Крючкова Т.Б., Нарумов Б.П. Зарубежная социолингвистика. Германия, Испания. – М.: Наука, 1991. – 7 с.

²⁸ Betz W. Zwei Sprachen in Deutschland? // Merkur, 1962, 16/9. Mackensen L. Die deutsche Sprache unserer Zeit (Zur Sprachgeschichte des 20. Jh.) – Heidelberg, 1956; Moser H. Entwicklungstendenzen des heutigen Deutsch. – Moderna sprok, 1956; Moser H. Zur Situation der deutschen Gegenwartssprache // Studium Generale. 1962. H. 1; Moser H. Sprachliche Folgen der politischen. Teilung Deutschlands // Wirkendes Wort. – Düsseldorf, 1962.

²⁹ Швейцер А.Д. Некоторые актуальные проблемы социолингвистики // Иностранные языки в школе. – № 3, 1969.

Tilni boshqarish nazariyasi(LMT)ning asoslari XX asrning 70–80-yillarida qo'yilgan bo'lib, Jernudd va Neustupny tomonidan ishlab chiqilgan tilni boshqarish nazariyasiga ko'ra, til boshqaruvi jarayonini individual darajada amalga oshirish mumkin. Chunki “tilni boshqarish ma'ruzachi o'z nutqining normadan chetga chiqishini qayd etganda boshlanadi”³⁰. Xalqaro tajribada til menejmentining kichikroq tashkilotlarni anglatuvchi mikro, milliy va undan yuqori kengroq jamoalarni aks ettiruvchi makro darajalari³¹ farqlangan va ularga aloqador izlanishlar shakllantirilgan. Dunyo tilshunosligida til menejmentining yuqorida keltirilgan masalalari bilan bir qatorda davlat tili menejmenti, til maqomi menejmenti borasida ham qator izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbek tilshunosligida til siyosati, til va jamiyat masalalari tadqiqini M.Mirtojiyev³², N.Mahmudov³³, M.Irisqulov, B.To'ychiboyev, E.Xudoyberdiyev, A.Nurmonov, E.Begmatov, H.Ne'matov, A.Berdialiyev³⁴, I.Qo'chqortoyev, S.M.Mo'minov³⁵, H.Dadaboyev, S.Ashirboyev, B.Mengliyev, N.Uluqov, Sh.Usmanova³⁶, N.Bekmuhamedova, G.Iskandarova, R.Normurodova³⁷, B.Y.Qo'shoqova³⁸, R.Zaripov, G.Rahimov³⁹, B.Karimov, Q.Xonazarov⁴⁰, S.Shermuxeimedov⁴¹, B.Karimov⁴²,

³⁰ Jernudd Bjorn, Neustupny Jiri V. Language planning: For whom? // In L.LaForge (Eds.). Proceedings of the international colloquium on language planning. – Quebec. Canada: Presses de l'Universite Laval, 1987. – 69 p.

³¹ Kaplan Robert B., Baldauf Richard B. Language planning from practice to theory. – Clevedon; UK: Multilingual Matters Ltd, 1997. – 117 p.

³² Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 27 б.

³³ Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 24 б.

³⁴ Berdialiyev A., Turdibekov M. Sotsiolingvistika. Darslik. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 134 b.

³⁵ Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 235 с.

³⁶ Усманова Ш., Бекмухамедова Н., Искандарова Г. Социолингвистика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2014. – 81 б.

³⁷ Нормуродова Р. Социолингвистика. Услубий қўлланма. – Термиз, 2008. – 82 б.

³⁸ Қўшоқова Б.Й. Тил функционал ривожланишининг социолингвистик таҳлили (ўзбек тили мисолида). – Хўжанд: Меърож, 2020. – 99 б.

³⁹ Раҳимов Ғ. Инглиз тилининг Ўзбекистонда тарқалиши (социолингвистик ва прагматик жиҳатлар): Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 44 б.

⁴⁰ Хоназаров Қ. Тил ва дил. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – 68 б.; Хоназаров Қ. Мустақиллик ва ёшларни байналмилал руҳда тарбиялаш. – Тошкент: Қатортол-Камолот, 1998; Хоназаров Қ. Мустақиллик ва миллий муносабатларнинг ривожланиши. – Тошкент, 2001. – 44 б.

K.Mira'zamov⁴³, J.Tulenov, B.Siddiqov, Z.G'ofurov, A.Abdunabiyev, E.Yusupov, J.Mamashukurov⁴⁴, G.Kurboniyazov⁴⁵, J.Djamolov⁴⁶ singari tilshunos va faylasuflarimizning ishlarida kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, g'arb tilshunos olimlari B.Shlayter, U.Fierman⁴⁷, X.Shiffman⁴⁸, M.Dikkens, I.Baldauflarning⁴⁹ monografiya va maqolalarida O'zbekistondagi til siyosati, o'zbek tilining mustaqillik davridagi rivojlanishi milliy taraqqiyot va millatlararo munosabatlar kontekstida yoritilgan.

O'zbekistonda davlat tili menejmenti sotsiolingvistik aspekti, davlat tili menejmenti huquqiy me'yorlarining nazariy-metodologik asoslari va amaliy manbalari mutaxassislar tomonidan muayyan darajada anglansa-da, bunday manbalar sirasiga kiruvchi fundamental materiallar hech qaysi bir tadqiqotda til menejmenti nuqtayi nazaridan tavsiflanmagan, davlat tilining ijtimoiylashuv jarayonlarini tartibga solishda qonun hujjatlarining roli ilmiy-amaliy jihatdan yoritilmagan, ijtimoiy o'zgarishlarning til menejmentiga ta'siri masalasi ham shu paytgacha mamlakatimizda olib borilgan lingvistik, sotsiolingvistik tadqiqotlarda aks etmay kelmoqda. Mazkur tadqiqot qayd etilgan jihatlarni o'rganganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Monografiyani yozish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan ilmiy tadqiqotlar puxta o'rganildi va ulardan foydalanildi.

⁴¹ Шермухамедов С. Ижтимоий тараққиётда миллатлараро алоқа маданиятининг аҳамияти. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 32 б.

⁴² Каримов Б.Р. Миллат, инсон ва тил: тараққиёт муаммолари. – Қарши: Насаф, 2003. – 131 б.

⁴³ Каримов Б., Мираъзамов К. Миллат равнақи ва тил муаммолари. – Тошкент: Фан, 1993. – 21 б.

⁴⁴ Мамашукуров Ж.А. Ўзбек тилининг давлат тили сифатида ривожланишининг ижтимоий-сиёсий ва маънавий асослари: Фалс. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 22 б.

⁴⁵ Курбониязов Г. Қорақалпоғистондаги лисоний вазият: Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 80 б.

⁴⁶ Djamolov J. MDH mamlakatlarida davlat tili masalalari: Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) ... diss. – Farg'ona, 2023. – 137 b.

⁴⁷ Fierman William. Language Planning and National Development: The Uzbek Experience. – Berlin: New York: Mouton de Gruyter, 1991.

⁴⁸ Schiffman Harold. Language Policy and Language Conflict in Afghanistan and its Neighbors: The Changing Politics of Language Choice. – Leiden; Boston, 2012. <https://brill.com/edcollbook/title/17296?language=en>

⁴⁹ Ингеборг Балдауф. Шимолий Афғонистон ўзбекларининг тили, жойлашуви ва ўхшашлиги // ҚарДУ хабарлари. – Қарши, 2015. – № 1. – Б. 66–79.

Tadqiqot doirasida quyidagi qator vazifalar amalga oshirildi:

xorijiy mamlakatlar davlat tili menejmentining ilmiy-nazariy manbalari o'rganildi;

xorijiy mamlakatlardagi lisoniy vaziyat va davlat tili menejmentining huquqiy-me'yoriy asoslari tahlil qilindi;

xorijiy mamlakatlar davlat tili menejmentining tashkil etilish mezonlari yoritildi;

O'zbekistondagi mustaqillik arafasi til siyosati va amaliyoti xususiyatlari ochib berildi;

O'zbekistonda istiqlol arafasi va mustaqillik yillaridagi til menejmenti modellari yoritildi;

O'zbekistonda tillararo munosabat va ularning menejmenti ochib berildi;

O'zbekistonda davlat tili menejmenti lingvistik va huquqiy me'yorlarining nazariy-metodologik asoslari va amaliy manbalari belgilandi;

davlat tilining ijtimoiylashuv jarayonlarini tartibga solishda qonun hujjatlarining roli, ijtimoiy o'zgarishlarning til menejmentiga ta'siri asoslandi;

O'zbekistonda ta'lim tillari menejmenti yoritildi;

O'zbekistonda til maqomi, til korpusi menejmenti holati yoritildi va til marketologiyasini yo'lga qo'yish tamoyillari belgilandi.

Quyidagi jihatlar monografiyaning ilmiy yangiligi sifatida qaraladi:

O'zbekiston Respublikasi davlat tili menejmenti lingvistik, huquqiy me'yorlarining nazariy-metodologik asoslari, amaliy manbalari belgilanib, ularning davlat tili menejmentidagi ahamiyatini belgilash va davlat tilining ijtimoiylashuv jarayonlarini tartibga solishda qonun hujjatlarining roli, ijtimoiy o'zgarishlarning til menejmentiga ta'siri, davlat tili menejmentining lingvistik me'yorlari ta'limi holati aniqlangan;

O'zbekiston til menejmentida mamlakatdagi tillar maqomini belgilash, til korpusi menejmenti va til marketologiyasini yo'lga qo'yishning ilmiy, texnologik, marketologik, rag'batlantiruvchi va ijtimoiy xizmatlarga asoslangan tamoyillari dalillangan;

davlat tili menejmenti muayyan davlat, hukumat yoki hukumat rahbarlarining mamlakat hududida davlat tilini joriy etish, tartibga solish, rivojlantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlari yig'indisi hisoblanishi, ushbu jarayon o'lkada yashovchi boshqa millatlar tillariga hurmatni saqlagan holda davlat tilini targ'ib qilishga qaratilgan faoliyat ekanligi dalillangan;

til boshqaruvi oila, tashkilot va muassasalar, sohalar, davlat, xalqaro darajalarda bo'lishi asoslangan, til boshqaruvi bosqichlari sifatida quyi, o'rta va yuqori bosqichlar ajratilib, til menejmentining yuqori bosqichida davlat miqyosidagi til boshqaruvi e'tiborga olinishi, o'rta bosqichda davlat va xalq o'rtasida til masalalari yuzasidan ko'prik bo'luvchi vakolatli muassasalarning til boshqaruvidagi faoliyati nazarda tutilishi, quyi boshqaruvda esa jamiyatdagi til foydalanuvchilarining til boshqaruvidagi o'rni hisobga olinishi asoslanib, til menejmentining me'yorlari esa til boshqaruvini olib borayotgan hukumat, muassasa, guruh tomonidan qabul qilinadigan qarorlarda ifodalanishi ochib berilgan;

til menejmentida tillar maqomi mamlakatdagi milliy ko'ptillilik bilan bog'liq holda tilning funksiyasiga qarab belgilanishi asoslanib, til menejmentida tillarning rasmiy, viloyat, kengroq muloqot, xalqaro, guruh, ta'lim, maktab predmeti, adabiy, diniy, ommaviy axborot vositalari, faoliyat-ish, internet tili belgili funksiyalari ajratilgan va ularning til menejmentidagi maqomini belgilash tamoyillari aniqlangan.

Monografiyaning amaliy natijalari quyidagilar bilan belgilanadi:

O'zbekistonda davlat tili menejmentining shakllanish omillari sotsiolingvistik aspektda dalillangan;

mustaqillik arafasidagi til siyosati va amaliyoti, mustaqillik yillarida davlat tilidan foydalanishning holati, mamlakatdagi tillararo munosabat ochib berilgan;

O'zbekiston davlat tili menejmenti lingvistik va huquqiy me'yorlarining nazariy-metodologik asoslari va amaliy manbalari keltirilib, ularning davlat tili menejmentidagi ahamiyati yoritilgan;

O'zbekiston til menejmentida mamlakatdagi tillar maqomi, til korpusi menejmenti holati va til marketologiyasining yo'lga qo'yilganlik darajasi aniqlangan.

Monografiyaning ilmiy ahamiyati O‘zbekistonda davlat tili menejmentining shakllantirilishida, o‘zbek tili taraqqiyotining innovatsion strategiyalarini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda, O‘zbekistonda davlat tili menejmentining nazariy-metodologik fundamental manbalarini belgilashda, saralashda, amaliy filologiya, sotsiolingvistika, huquqshunoslik yo‘nalishlarida tadqiqotlarni amalga oshirishda ilmiy-nazariy manba sifatida qo‘llanilishi bilan asoslanadi.

Monografiyaning amaliy ahamiyati til menejmenti mutaxassisliklari va fanlari, amaliy filologiya va uning bo‘limlari, sotsiolingvistika, lingvodidaktika, lingvokriminalistika, uslubiyat, lingvokulturologiyaning fan sifatida o‘qitilish jarayonida dastur, reja tuzish hamda mavzularni bayon etishda manba vazifasini o‘tashi bilan izohlanib, falsafa, tarix, sotsiologiya, siyosatshunoslik sohalarida “O‘zbek tili taraqqiyotining tarixiy xususiyatlari”, “Davlat tilining davlat va jamiyat qurilishidagi o‘rni” kabi predmetlarda o‘qitilishi va tarkibiy qismi sifatida berilishi, ma’ruzalarda foydalanilishi, davlat va jamiyat qurilishi muammolari bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar, til menejmenti mutaxassislari, sotsialingvistlar, huquqshunoslarga tavsiya etilishi bilan belgilanadi.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. DAVLAT TILI MENEJMENTIDA XALQARO TAJIRIBA: TAHLIL VA MUNOSABAT	14
1.1. Xorijiy mamlakatlar davlat tili menejmentining ilmiy-nazariy asoslari.....	14
1.2. Xorijiy mamlakatlarda lisoniy vaziyat va davlat tili menejmentining huquqiy-me'yoriy asoslari	30
1.3. Xorijiy mamlakatlarda davlat tili menejmentining tashkil etilishi	45
II BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA TIL SIYOSATI: YO'NALISHLARI VA HOLATINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTI.....	62
2.1. O'zbekistonda mustaqillik arafasida til siyosati va amaliyoti..	62
2.2. O'zbekistonda istiqlool arafasi va mustaqillik yillaridagi til menejmenti modellari	75
2.3. O'zbekistonda tillararo munosabat va ularning menejmenti....	91
III BOB. O'ZBEKISTONDA DAVLAT TILI MENEJMENTINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	109
3.1. O'zbekistonda davlat tili menejmentining lingvistik va huquqiy me'yorlari nazariy-metodologik asoslari, amaliy manbalari	109
3.2. Davlat tilining ijtimoiylashuv jarayonlarini tartibga solishda qonun hujjatlarining roli, ijtimoiy o'zgarishlarning til menejmentiga ta'siri	121
3.3. O'zbekistonda ta'lim tillari menejmenti	137
IV BOB. O'ZBEKISTONDA TIL MENEJMENTI: TIL MAQOMI, TIL KORPUSI VA TIL MARKETOLOGIYASI	154
4.1. O'zbekistonda til maqomi menejmenti.....	154
4.2. O'zbekistonda til korpusi menejmenti	171
4.3. O'zbekistonda til marketologiyasi menejmenti	188
XULOSA	203
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	206

Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li

**O‘ZBEKISTONDA DAVLAT TILI MENEJMENTI:
SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTI VA HUQUQIY-
ME’YORIY ASOSLAR**

Monografiya

Monografiya muallifning tahririda taqdim etilgan.

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 13.01.2025.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 12,7. Shartli bosma taboq 13,2.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint  +998 99 180 97 10